

YANGI O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM RIVOJI, MUAMMO VA ISTIQBOLLARI

M.J.Hamrakulova

Jizzax shahar 29-maktab psixologi

Annotatsiya. *Ushbu maqola mamlakatimizda inklyuziv ta'lim, ushbu ta'lim tizimini jamiyatimizga joriy etish va bundan ko'zlangan maqsad va vazifalarni qamrab olgan. Shuningdek, inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha yurtimizda amalga oshirilayotgan masalarga to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, inklyuziv ta'lim, konsepsiya, pedagogika, ijtimoiy himoya, reabilitatsiya, psixokorreksiya.*

Mamlakatimizda yangi davr boshlanishi bilan ta'limda ham yangi yondoshuvlar qabul qilinmoqda. Yangi qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning ham amaliy ahamiyati benihoya kattadir. Ushbu normativ huquqiy hujjatning negizida barcha o'quvchilarning ilm olishi, kasb egallashlari uchun teng huquqiy imkoniyatlarning asosi yaratilgan. Zeroki, mustaqil davlatning har bir fuqarosi ijtimoiy xizmat va unga aloqador qator ta'minot hamda xizmatlardan hamma kabi teng foydalanish huququiga ega. Inklyuziv ta'lim – sog'lom va nogironligi bor bolalarning o'rtasidagi bo'lgan muammolarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar nuqsonida uchraydigan muammolarga qaramasdan, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan ta'lim tizimi hisoblanadi. Inklyuziv so'zi (ingliz tilida qamrab olish - inklyuzion, shu jumladan ta'lim, birgalikda o'rganish) degan ma'nolarni anglatgan. Inklyuziv ta'lim dastlab Skandinaviya (Daniya, Norvegiya, Shvetsiya) davlatida 1970-yillarda paydo bo'lgan. Keyinchalik AQSH va Yaponiyada ham paydo bo'lgan [5].

Inklyuziv ta'lim tizimining maqsadi — ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Shu sababdan ham, yurtimizda inklyuziv ta'limga va uni jamiyatimizga joriy etish bo'yicha alohida e'tibor berilmoqda. Davlatimiz rahbari qarori bilan 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va uni 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Qarorga muvofiq, 2021/2022 o'quv yilida tajriba-sinov tariqasida shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda inklyuziv ta'lim joriy qilinishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochilishi, Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb - hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan guruhlar, maktablarda inklyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan "Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi" tashkil etilishi belgilandi [1]. Mazkur ishlarning natijasi sifatida inklyuziv ta'limning barcha jihatlarini, joriy etish yo'llari,

maqsad va vazifalari, bu sohadagi islohatlar “Umimiy o’rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to’g’risida”gi Nizom, 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi natijalar kutilmoqda:

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan shaxslarning rivojlanishi, reabilitatsiyasi, jamiyatga integratsiyalashuvida inklyuziv ta’limning strategik omil sifatidagi roli tasdiqlanadi;


- alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning ta’limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta’minlanadi;

- davlat, jamiyat, shaxsning inklyuziv ta’lim sohasidagi manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratiladi;

- inklyuziv ta’lim tizimining umumiy qulayligi, uzluksizligi, ta’lim sifati, shuningdek o’quvchilarning rivojlanish darajasi, xususiyatlariga moslashuvchanligi va variativligiga erishiladi [4].

Konsepsiya amaliy natijalariga muvofiq Respublika miqyosida o’tgan 2021-2022 va joriy 2022-2023 o’quv yilidan 130 dan ortiq umumiy o’rta ta’lim maktablarida inklyuziv va boshlang’ich tayanch korreksion sinflar tashkil etilgan [3]. Ushbu ta’lim shaklini joriy etish bo’yicha barcha meyoriy hujjatlar hozirgi kungacha mukammal tarzda yaratilgan. Ammo qilinayotgan va amalga oshirilayotgan ishlarda ba’zi bir kamchiliklar ham mavjudligi ko’zga yaqqol tashlanadi. O’qituvchilar bilan olib borilgan suhbat va savolnomalar asosida inklyuziv sinflar o’qituvchilari uchun o’quv tarbiya jarayonini tashkil etish bo’yicha metodik ta’minot zarurligi, bu borada o’qituvchilar malakasini oshirishga juda katta zaruriyat mavjudligi, dars jarayonini kuzatish asnosida inklyuziv sinflarda o’quvchilar sonini kamaytirishga katta ehtiyoj borligi aniqlandi [2].

Mamalaktimiz ta’lim tizimida olib borilayotgan sa’y-harakatlarning natijasi o’laroq hozirig kunga kelib maktablarimiz va ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim olish darajasi oshib bormoqda. Quyida berilgan rasmda inklyuziv ta’lim bilan o’quvchilarning qamrov darajasi oshib borayotganligini ko’rish mumkin.



1-rasm. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ulushining yillar kesimi tafovuti

Ushbu berilgan grafika umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim shartlarida ta'lim olayotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ulushining yillar kesimida oshib borayotganini ko'rsatadi.

Xulosa. Yurtimiz ta'lim siyosati va islohotlari har bir fuqaroning keng va teng imkoniyatlar asosida ta'lim olishi, ilm o'rganishi, kasb-hunar egallashi uchun yaratilganligini isbotlaydi. Mamlakatimizda yaratilgan ta'lim sharoitlaridan barcha o'quvchilar foydalanish imkoniga ega, xoh ular sog'lom o'quvchi, xoh ular nogiron o'quvchi bo'lsin. Inklyuziv ta'lim orqali biz nuqsoni bor bo'lgan bolalarni ham hayotga qiziqishini orttiribgina qolmay, ularning ham ta'lim olishda, izlanishda boshqa bolalardan hech ham kam joyi yo'q ekanligini bildiramiz. Ularning salohiyatini anglash, iqtidorini baholash va, albatta, kelgusida bunday bolalarda kuzatiladigan jamiyatdan yiroqlashish, ijtimoiy hayotning faol a'zosiga aylana olmaslik kabi muammolarni bartaraf etishda inklyuziv ta'lim eng yaxshi yechimdir. Shuningdek, inklyuziv ta'lim olayotgan bolalarni nuqsoni bo'lmagan bolalar bilan birga ta'lim berish tufayli, boshqa bolalarda shukur qilish, odamlarning ko'rinishiga qaramasdan yordam berishni, ularni qo'llab-quvvatlash, mehr-shavfqat kabi hissiyotlarni uyg'otamiz. Sog'lom bolalarni insonparvarlik ruhida tarbiyalaymiz. Ko'rib turganimizdek, inklyuziv ta'lim nafaqat nuqsonli bolalar, balki sog'lom bolalarning ham jamiyatda shaxs bo'lib yetishishlarida o'zining samarali ta'sirini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi.
5. Отамуратов Р., Отамуратова С., Розикүлова Д. Уникальность концепции эмоционального интеллекта в семейных отношениях //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 423-428.